

SUT YO`NALISHIDAGI TURLI ZOTDAGI QORAMOLLARDAN GO`SHT ISHLAB CHIQARISHDA OZIQLANTIRISHNING AHAMYATI

Mustaqil izlanuvchi (PhD) Amonov Rasul Chorshambi o‘g‘li,

Bakalavr Janabaev Timur Baxadir uli

Bakalavr Kaljanbaev Saǵındıq Paraxat uli

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sut yo`nalishidagi qoramol zotlarining buqachalarini oziqlantirishi, bir kunlik vazn olganligi o`rganilgan.

Kalit so‘zlar: Ratsionlar tarkibida quruq modda, qoramollar, ratsionlar, buqachalar, oziqlantirish, ozuqalarning is’temol darajasi.

Kirish. Chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go‘sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash, ayniqsa, qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko‘paytirishda muhim o‘rin tutadi. Ichki iste’mol bozorida go‘sht, sut, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta’minalash, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik ozuqa bazasini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda 2022-2023-yillarda har bir tumanda kamida 1 tadan go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonardonlariga kooperatsiya usulida chorva mollari yetkazib berishni va yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishni tashkil etish gi qarorlarning ijrosini ta’minalash ishlab chiqaruvchilar bilan bir vaqtda Oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarning oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Shunday ekan sut yo`nalishidagi qoramol zotlaridan jadal foydalanishni joriy etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo`lib hisoblanadi. Hayvonlarni turi, zoti, zotdorligi, jinsi, yoshi va mahsuldorlik

yo‘nalishidan qa’tiy nazar, to‘la qiymatli oziqlantirish, ularni mahsuldorligi bo‘yicha genetik potensialidan to‘liq foydalanish imkoniyatini beradigan asosiy omildir. To‘liq kompleks zarur bo‘lgan mineral, vitaminlarni minimal miqdorda olaolmagan individ o‘zini genetik salohiyatini to‘liq ishga sola olmaydi. Shuning uchun ham tuzilgan ozuqa ratsionlarni mufoqlashtirish o‘ta muhim hisoblanadi. To‘la qiymatli ratsion hayvonlarni turli xil oziq moddalarga, vitaminlarga va minerallarga bo‘lgan talabi asosida aniqlanadi. Oziqlantirish me’yor darajasida o‘sish va rivojlanishini ta’minlashi e’tiborga olingan holda tuziladi. Shuni ta’kidlash kerakki qimmatbaho ozuqalarini (sut va konsentratlar) iloji boricha tejash lozim. Buzoqlar tug‘ilgandan keyin 10-15 kun davomida ular uchun yolg‘iz ozuqa sut hisoblanadi. Obrat ham ratsionga 4 haftalik yoshidan boshlab kiritiladi. Tajribadagi hayvonlarni ratsioniga kiritilgan sut, obrat, yashil ozuqalar, beda pichani, makkajo‘xori silosi, senaj xo‘jalikni o‘zida yetishtirilgan. Yozgi ratsion tarkibida asosan yashil ozuqalar kiritilgan bo‘lsa, qishki ratsionlarga asosan makkajo‘xori silosi, senaj, beda pichani, somon kiritilgan. Tajribaning barcha davrlarida va yilning fasllarida hayvonlarga kuchli ozuqalar berilgan. Tajriba davrida hayvonlarga berilgan ozuqalar tarkibi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, buzoqlarga berilgan sut va obrat miqdori bir xil bo‘lgan. Ammo boshqa turdagи ozuqalarning is’temol darajasi bo‘yicha farq kuzatilgan. Xususan, II, III guruhdagi buqachalar o‘z tengqurlari, I guruhga nisbatan tegishlichcha: 2677,0 kg yoki 25.9 %, yashil beda ko‘p iste’mol qilishgan. Makkajo‘xori silosi, I guruhdagi o‘z tengqurlari, II guruhga nisbatan shunga mutonosib ravishda: 148,0 kg yoki 5%; xuddi shuningdek senaj miqdori ham 61,0 kg yoki 4,06%; III guruhdagiga nisbatan shunga mutonosib ravishda: 90,0 kg yoki 3.1%; xuddi shuningdek senaj miqdori ham 61,0 kg yoki 4,06%; ziyod bo‘lgan.

Tajribadagi hayvonlarga jami sarflangan yem-hashak miqdori (har bir boshga o‘rtacha), kg.

Oziqa turi	G u r u h l a r					
	I		II		III	
	Oziqa miqdori	Oziqa birligi	Oziqa miqdori	Oziqa birligi	Oziqa miqdori	Oziqa birligi
Yog‘i olinmagan sut	100	30,0	100	30,0	100	30,0
Yog‘i olingan sut	120	15,6	120	15,6	120	15,6
Beda o‘ti (gullash davri)	7582	1592	10259	2154	10259	2154
Makkajo‘xori silosi	2961	592,2	2813	562,6	2871	574,2
Senaj	1501	435,2	1440	417,6	1428	414,1
Hashaki lavlagi	750	90,0	764	91,7	764	91,7
Beda pichani	854	375,8	867	381,4	867	381,4
Bug‘doy somoni	210	46,2	231	50,8	231	50,8
Paxta sheluxasi	176	63,4	198	71,3	198	71,3
Omixta yem	1158	1030,6	1164	1035,9	1164	1035,9
Iste’mol qilingan ozuqalarning to‘yimligi, ozuqa birligi	X	4437,1	X	5000,2		
Quruq modda, kg	5280,1	-	6819,8	-	5280,1	-
Hazmlanuvchi protein, kg	572,39	-	739,29	-	572,39	-
Al mashunuvchi energiya, MDj	53866,4	-	69573,1	-	53866,4	-
Xom protein, kg	758,74	-	979,98	-	758,74	-
Xom yog‘, kg	181,92	-	234,97	-	181,92	-
Xom klechatka, kg	1464,24	-	1891,20	-	1464,24	-
AEM, kg	2719,94	-	3513,04	-	2719,94	-
Kalsiy, kg	70,11	-	90,55	-	70,11	-
Fosfor, kg	17,30	-	22,35	-	17,30	-

Shuni ta’kidlash lozimki, yosh qoramollarni bo‘rdoqilayotganda tuzilgan ratsionlar tarkibida quruq modda me’yor darajasida bo‘lish kerak. Chunki, hayvonni quruq modda energiya va to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabini qondirishda katta rol o‘ynaydi. Bizning tajribamizda ratsionlardagi quruq modda miqdori simmental zotiga mansub bo‘lgan hayvonlarda yuqori bo‘lgan. Xususan, II - guruxdagagi Golshtin zotiga mansub buqachalar tajriba davomida is’temol qilgan ozuqalarning tarkibidagi quruq modda 6819,8 kgga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha ular o‘z tengqurlaridan, I guruhdagi

hayvonlarni mutanosib ravishda: 1539,7kg yoki 29,2%, ustun bo‘lgan. Qoramollarning irsiyatdagi sut va go`sht maxsuldarligi faqat ma’qul tashqi muhit sharoitlari ularni o’sirish va foydalanish davomida yaratib berilgandagina ro`yobga chiqadi. Hayvonlarda tug‘ilgandan so‘ng yuqori mahsuldarlik va sifatlarni shakllantirish hayvonlarning ona qornida va tug‘ilgandan keyingi rivojlanish qonuniyatlariga bo‘ysinadi. Sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qoramolchilik fermer xo`jaliklarida zamon talabi asosida aholini oziq ovqat mahsulotlari bilan taminlash maqsadida sifatli go`sht ishlab chiqarishni jadallashtirish zarur. Fermer xo`jaligida tajriba uchun I-guruhgaga 1 tipli oziqlantirishdagi Golshtin zotli buqachalar olingan bo`lib, II-guruhgaga fasllar kesimida mavsumiy oziqlantirilgan Golshtin zotli buqachalar olingan. Ikkala guruhgaga ham buqachalardan n=10 boshdan tanlab olindi.

Xulosa Hozirgi vaqtida duno aholisining soni ortib borishi sababli sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qoramolchilik fermer xo`jaliklarida zamon talabi asosida aholini oziq ovqat mahsulotlari bilan taminlash maqsadida sifatli go`sht ishlab chiqarishni jadallashtirish zarur. Bu mavzu sóngida xulosa qilib chuni aytish mumkinki mollarni semirtirishda belgilangan ratcion asosida oziqlantirish juda yaxshi natiyja beradi. Nafaqat mollarni balki boshqa chorvachilik hayvonlarini yaxshi tuzilgan ratcion ososida oziqlantirilsa albatta kózlangan nátiyjaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mysik A.T. Sovremennye tendensii razvitiya jivotnovodstva v stranax mira. // Zootexniya. -Moskva, 2010. -№1. -S. 2-8.
2. Fonge, J. Holstein-Dairy Fanner, 1972, 19,4:22-23.170, Franz H., Droese A« Grundlagen und Zielstellung zur einbe-ziehung der Milcheiweissleistung in das Zuchtpogramm. -Tierzucht, 1972, N 7.
3. T. Q. Nao`rinov, K. M. Allamberganov. “Buqachalarda go`sht ishlab chiqarish ko`rsatkichlari. Ilmiy-amaliy maqola. “CHORVACHILIK VA NASLCHILIK ISHI” Ilmiy-amaliy jurnal.ISSN-2184-9459 15-17b
4. Akbarova. M va boshqalar. Har xil zotga mansub buqachalarning o`sish va rivojlanish bosqichlari. Ilmiy-amaliy maqola. “CHORVACHILIK VA NASLCHILIK “jurnal.#1(12)2020 18-20b.
5. O. Mamatqulov, Sh. Mamtaлиev va O. Rizayevlar. “O`z naslchilik” davlat korxonasida angler zotli naslli buqachalar va ularning nasldorlik ko`rsatkichlari. Ilmiy-amaliy maqola.